



Model for ensuring the competitiveness of leaders of the preschool education system

Anvar ESHKURBONOV¹

Institute for Retraining and Advanced Training of Principals and Specialists of Preschool Educational Organizations

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2023
Received in revised form
15 August 2023
Accepted 25 August 2023
Available online
15 September 2023

Keywords:

competitiveness,
model,
modeling,
formation of
competitiveness,
professional development
model,
professional activity.

ABSTRACT

This article analyzes the model of ensuring the competitiveness of preschool education system leaders. Modeling in pedagogy is a material or mental imitation of what actually exists in the system by creating special analogs from which the principles of organization and operation of the system are produced. In order to achieve the goal of education, the meaningful foundations of the professional development model of the formation of the competitiveness of the leaders of the preschool educational organization should be rationally implemented.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss7/S-pp230-236>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Maktabgacha ta'lim tizimi rahbar xodimlarining raqobatbardoshligini ta'minlash modeli

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

raqobatbardoshlik,
model,
modellash, ta'minlash,
raqobatbardoshlikni
shakllantirish,
kasbiy-rivojlantiruvchi
model,
kasbiy faoliyat.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimi rahbar xodimlari raqobatbardoshligini ta'minlash modeli tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogikada model yaratish – bu tizimni tashkil etish va ishlash tamoyillari ishlab chiqariladigan maxsus analoglarni yaratish orqali tizimda haqiqatan ham mavjud bo'lgan moddiy yoki ruhiy taqlid qilishni anglatishi, ta'lim maqsadiga erishish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining raqobatbardoshligini shakllantirishning kasbiy-rivojlanish modelining mazmunli asoslari ratsional ravishda amalga oshirilishi kerakligi haqida fikrlar bayon etilgan.

¹ Basic Doctoral Student, institute for Retraining and Advanced Training of Principals and Specialists of Preschool Educational Organizations. E-mail: anvar_e@mail.ru

Модель обеспечения конкурентоспособности руководителей системы дошкольного образования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

конкурентоспособность, модель, моделирование, формирование конкурентоспособности, модель профессионального развития, профессиональная деятельность.

В данной статье анализируется модель обеспечения конкурентоспособности руководителей системы дошкольного образования. Моделирование в педагогике – это материальное или мысленное подражание тому, что реально существует в системе, путем создания специальных аналогов, из которых вырабатываются принципы организации и функционирования системы. Для достижения цели образования должны быть рационально реализованы содержательные основы модели профессионального развития формирования конкурентоспособности руководителей дошкольной образовательной организации.

Tadqiqotimiz jarayonida raqobatbardoshlikning mohiyati, tuzilishi va mazmunini aniq tasavvur qilish, shuningdek tanlangan yondashuvlar to'plamidan foydalanish uning shakllanish jarayonining modellashtirishga o'tishiga imkon berdi.

Falsafada, psixologiyada, pedagogikada "model" tushunchasiga yondashuvlar turlicha. Falsafada model "ob'ektlarni o'z modellari bo'yicha o'rganish usuli – tabiiy yoki ijtimoiy voqelikning ma'lum bir bo'lagining analoglari, haqiqatan ham mavjud bo'lgan predmetlar, hodisalar va quriladigan ob'ektlarning modellarini qurish va o'rganish" deb ta'riflanadi [7].

Umumiy ilmiy nuqtai nazardan, modellashtirish deganda qandaydir ob'yektning xususiyatlarini uni o'rganish uchun maxsus yaratilgan boshqa, model deb ataladigan ob'yektda ko'paytirish tushuniladi. Bu tushunishga asoslanib, pedagogik modellashtirishni pedagogik model deb ataladigan maxsus yaratilgan ob'yektda mavjud bo'lgan pedagogik tizimning xususiyatlarining aksi deb atash lozim.

E.V. Yakovlevning fikricha, pedagogik model quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- 1) tizim bo'lishi;
- 2) asl nusxaga nisbatan o'xshashlikning qandaydir mutanosibligida bo'lishi;
- 3) ma'lum parametrlar bo'yicha asl nusxadan farq qilishi;
- 4) tadqiqot jarayonida asl nusxasini muayyan mutanosibliklarda almashtirish;
- 5) tadqiqot natijasida asl nusxa haqida yangi bilim olish imkoniyatini ta'minlash [13].

Modellashtirishning mashhurligi va modellar turlarining xilma-xilligi olimlarni modellar tasnifini tuzishga urinishga undadi. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, modellar an'anaviy tarzda moddiy va idealga bo'linadi, bunda ularning qurilish uslubiga urg'u beriladi.

Model va asli mutanosibligining tarkibiy xususiyatlariga ko'ra, model va asl nusxaning substansional, tarkibiy va funksional mosligi farqlanadi, shu munosabat bilan modellar substansional, tuzilmaviy, funksional va aralashga bo'linadi; modelni tuzish uslubiga ko'ra, ular eliminativ va ijodiyga bo'linadi.

Bugungi kunga kelib, modellarning kichik doirasi shakllandi, ularning qurilishi tadqiqotchilar tomonidan pedagogik hodisalarning o'ziga xos xususiyatlari, tavsiflari va xossalari chuqur o'rganish uchun olib boriladi.

Eng keng tarqalgan modellarga quyidagilar kiradi:

1) strukturaviy-funksional va funksional-strukturaviy, ularning mohiyati o'rganilayotgan ob'yektning tuzilishi va bajaradigan funksiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish;

2) tashkiliy birliklar va muvofiqlashtirish mexanizmlarini hisobga olgan holda, pedagogik jarayonlarni sub'yektlarning o'zaro ta'siri va vakolatlarining taqsimlanishi nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan tashkiliy;

3) tarbiyaviy – o'zaro bog'liq, muvofiq elementlar guruhi (tuzilma, maqsadlar, mazmun, uslublar va o'quv jarayonini baholash);

4) o'rganilayotgan hodisaning bir holatdan ikkinchisiga o'tish ketma -ketligini aks ettiruvchi jarayonli;

5) o'z mazmunida protsessual emas, balki statik hodisalarning xususiyatlarini ochib beradigan kompetentli;

6) matematik belgilar yordamida ifodalangan tashqi dunyo hodisalari qandaydir sinfining taxminiy tavsifini ifodalovchi matematik [9, 123–143-b.].

Modelni tuzish usuli integrativ bo'lib, u pedagogik tadqiqotlarda empirik va nazariy birlashtirishga imkon beradi.

Pedagogikada model yaratish – bu tizimni tashkil etish va ishlash tamoyillari ishlab chiqariladigan maxsus analoglarni yaratish orqali tizimda haqiqatan ham mavjud bo'lgan moddiy yoki ruhiy taqlid qilishni anglatadi.

Bizning tadqiqotimiz uchun V.A Shtoff tomonidan berilgan model ta'rifi eng yaqin: “Model shunday aqliy tasavvur qilingan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizimki, u tadqiqot ob'yektini aks ettirib va takrorlab, uni shunday o'zgartirishi mumkinki, bunda uni o'rganish bizga bu ob'yekt haqida yangi ma'lumot beradi” [12, 19-b.].

Modelni bunday tushunish raqobatbardoshlikni shakllantirish jarayonini modellashtirishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik modelni o'rganishda olingan bilimlarning qiymati ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlaydigan vositalarni topishga imkon beradi. Demak, modellashtirishning maqsadi – raqobatbardoshlikni shakllantirish modelini yaratish va natijada modelni pedagogik shartlar bilan birgalikda amalga oshirish, uni shakllantirish samaradorligini oshirishdan iborat. Kasbiy ta'limni loyihalashtirish natijasi rahbarlarning raqobatbardoshligini shakllantirishning kasbiy-rivojlanish modelidir [5].

Model o'qitish tabiati bo'yicha kasbiy-rivojlantiruvchi deb ataladi, ya'ni raqobatbardoshlikning prognoz qilinadigan shakllanish darajasi va rahbarning professional muhim fazilatlari rivojlanish darajasiga ko'ra. Kasbiy-rivojlantiruvchi model tarkibiy-funksional modellarga tegishli va to'rtta blokni o'z ichiga oladi (maqsadli, mazmunli, jarayonli-samarali va samarali-tuzatuvchi) va ta'lim maqsadlarining bajarilishini ta'minlaydi.

Maqsadli blok modelning maqsadi va qo'llanilishini – rahbarlarning raqobatbardoshligini shakllantirishni belgilaydi. Quyidagidan iborat funksional to'liqlik tamoyiliga tayanish [3]: har qanday tizim, shu jumladan pedagogik tizim, agar uning asosiy quyi tizimlari to'plami (tizim elementlari) funksional to'liq bo'lmasa, samarali ishlamasligi yoki umuman ishlay olmasligi model bloklarining funksiyalarini aniqlashga imkon berdi.

Shunday qilib, maqsadli blokning vazifasi tashxisli maqsad qo'yish va baholash jarayonida bitiruvchiga bozor talablariga javob beradigan va bo'sh ish o'rinlari egallashga talabgorlik qilish hamda boshqaruv sohasida muvaffaqiyatli faoliyat uchun raqobatbardosh ustunlik beradigan tashkiliy-boshqaruv kompetentligini va kasbiy

muhim fazilatlarining shakllanganligi prognozli darajasini baholab aniqlashdir. Ta'lim, ta'lim-kasbiy va kasbiy faoliyatni yagona ta'lim-kasbiy tizim sifatida ko'rib chiqsak, biz ijtimoiy-shaxsiy yondashuv nuqtai nazaridan, hech bo'lmaganda OTMda kasbiy ta'lim bosqichida yagona maqsad – kasbiy faoliyatning o'zining boshlanishini, ya'ni boshlang'ich kasbiy moslashuvning yakunlanishi mavjudligini ko'zda tutamiz. Bizning holatimizda, bu rahbar va xodimning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan professional kompetentlik darajasi, shuning uchun ham bu OTM, jamiyat, davlatning raqobatbardoshligidir.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetentli va raqobatbardosh maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini tayyorlash jamiyat, davlat, ta'lim tashkiloti, mehnat bozori (ish beruvchi) va xodimning o'zining manfaatlari birlashgan nuqtasidir.

Demak, ijtimoiy buyurtmaning maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarini tayyorlash darajasiga bo'lgan yuqori talablari va shaxsning sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyoji o'rtasidagi ziddiyatni hal qilish mumkin.

Jamiyat, davlat, ish beruvchi tomonidan belgilanadigan maqsadlar ta'lim tizimiga nisbatan tashqarida bo'lib hisoblanadi. Ta'lim tizimining maqsadlari va xodimning maqsadlari ichki maqsadlardir.

“Kvazi-maqsad” [6] tushunchasidan foydalanish va tadqiqotimiz mavzusiga uning proyeksiyasi “kvazi-maqsad” tushunchasini hisobga olgan holda modelning maqsadli blokini modellashtirishda raqobatbardosh maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini shakllantirish mumkinligini tasdiqlashga imkon beradi.

– bo'lajak rahbarga raqobatli ustunliklarni ta'minlaydigan, professional moslashuv tugashi va haqiqiy kasbiy faoliyat boshlanishi vaqtida maqsadli yo'nalish (maqsadni uzaytirish);

– jamiyatning, davlatning, ta'lim tashkilotining, ish beruvchining yuqori talablari, shaxsning sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarini tayyorlash darajasining kvazi-maqsadga muvofiqligini ta'minlash;

– maqsadning tizimni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, boshqaruv, rag'batlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirish;

– raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan shaxsiy va kasbiy rivojlanish darajasini oshirish.

Yuqoridagilar nuqtai nazaridan maqsadni tashxisli aniqlash va baholash quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak.

– raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan shakllanadigan kasbiy kompetensiyalarning, kasbiy faoliyat atamalarida aniq, muayyan va ma'nodosh ta'rifi;

– har qanday o'quv-kasbiy faoliyat sub'yekti tomonidan uning shakllanishini ob'yektiv nazorat qilish jarayonida tashxis qo'yiladigan xususiyatni aniqlash va o'lchashning yagona usuli;

– o'lchov natijalari asosida raqobatbardoshlikning shakllanish darajasini baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va shkalalarining integratsiyalashgan tizimi;

– raqobatbardoshlikning kvazi-maqsadga muvofiq shakllanish darajasini integrativ baholash va uning har qanday kompetensiya komponentlarini tanlab differensial baholash: kognitiv, samarali va shaxsiy-professional;

– raqobatbardoshlikning shakllanganligi darajasini tuzatish [4].

Modelning maqsadli blokining ishlash samaradorligiga mehnat bozori talablari bilan bog'liq bo'lgan va bo'sh ish o'rinlarini egallashga talabgorlik qilish va boshqaruv sohasida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish imkonini beradigan mezonlar, ko'rsatkichlar, darajalar tizimini ishlab chiqish orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari,

maqsadli blok ma'lumotlari ta'limning haqiqiy natijalarini kuzatish uchun asos bo'ladi. Maqsadli blok boshqa bloklar bilan chambarchas bog'liq, chunki maqsadga erishishning shakllari va usullarini maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining raqobatbardoshlikka erishishlarini jarayonlar, tuzatish va baholash orqali belgilaydi.

Hozirgi vaqtda kasbiy ta'lim mazmuni kompetensiyaga asoslangan yondashuv imkoniyatlari bilan bog'liq holda o'rganilmoqda, bu bilimga yo'naltirilgan komponentga taqalmagan, lekin, bizning fikrimizcha, hayotiy muammolarni hal qilishda, bitiruvchining asosiy funksiyalari, ijtimoiy rollari, kompetensiyalari, raqobatbardosh afzalliklarini bajarishda (ya'ni ko'p sohalarga tegishli) yaxlit tajribani nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari ta'limining mazmuniga nisbatan kompetensiyali-kontekstli yondashuv, kasbiy ta'limning mazmunini darajali va kesishuvchi xarakterga ega bo'lgan kompetensiyalar tizimi shaklida rivojlanayotgan ishlanmani, ya'ni umumiy-madaniy va kasbiy kompetensiyalarni anglatadi.

Shubhasiz, ta'lim muassasalarining ustuvor vazifasi – bu boshqaruv muammolarini hal qilish qobiliyatiga e'tibor qaratgan holda mutaxassisning asosiy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdir. Bu shuni anglatadiki, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari ta'limining mazmuni ma'lum ko'nikmalarni o'zlashtirishga va o'ziga xos qobiliyatlarni – kommunikabellik, tadbirkorlik, tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak [7]. Bunday qobiliyatlarning mazmuni muallif tomonidan o'z faoliyatini va boshqalarning faoliyatini oldindan ko'rish, rejalashtirish, tashkil qilish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish, tartibga solish va rag'batlantirish qobiliyati orqali ochiladi. Kompetentga asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan, muallifning pozitsiyalari uning individual faoliyatida ham, u tomonidan tashkil etilgan boshqaruv tizimining jamoaviy ishida ham amalga oshiriladigan asosiy darajadagi kasbiy kompetensiyalar sifatida belgilanishi mumkin.

S.V. Stepanovning fikriga ko'ra, bunday kompetensiyalar bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining kasbiy tayyorgarligiga uning kasbiy kompetensiyasiga muvofiqligi ko'rsatkichi sifatida bevosita kiritilishi kerak [6]. Biz ko'ramizki, bu holda kompetentlik muallif tomonidan kompetensiyalarni amalda tatbiq etish darajasi sifatida tushuniladi va kompetensiyalar kasbiy faoliyatning kognitiv, samarali va shaxsiy tajribasining murakkab sintezi vazifasini bajaradi.

Hozirgi vaqtda haqiqiy mehnat bozorining ish beruvchilari maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining ta'lim mazmunini o'rganish, tahlil qilish va loyihalashda faol ishtirok etmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarini tayyorlashda kompetentlikka asoslangan yondashuvning dolzarbligini aks ettiruvchi misollarni keltiramiz.

Taqdim etilgan ro'yxatda kompetensiyalar va professional muhim fazilatlarining (biz qabul qilgan kompetensiya konsepsiyasi nuqtai nazaridan) qandaydir chalkashliklari mavjud bo'lib, ularga muallif: samaradorlik, harakatchanlik, kommunikabellik, faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, ob'yektivlik, stressga chidamlilik, yetakchilik fazilatlarini kiritilgan. Bundan tashqari, taqdim etilgan professional muhim fazilatlarining mazmun tomoni tayyorlik, qobiliyat, ko'nikma komponentlarini o'z ichiga oladi, ya'ni kompetensiyalarga tenglashadi.

Raqobatbardoshlik va kompetentlikning nisbati muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, shuni eslatamizki, raqobatbardoshlik maxsus kasbiy va korporativ kasbiy kompetensiyaning ma'lum darajada shakllanishi bilan ta'minlanadi.

Vazifalarning korporativ xususiyatlarini va kasbiy faoliyat mazmunini o'rganish bizni maxsus va korporativ kompetentlik raqobatbardoshlikni belgilaydigan daraja bo'lishi mumkin degan xulosaga olib keldi.

Binobarin, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining raqobatbardoshligini shakllantirishning kasbiy-rivojlantiruvchi modelining tarkibiy bloki umumiy-madaniy va kasbiy: umumiy-kasbiy (asosiy), maxsus (kasbiy-maxsus) va ta'lim-kasbiy vazifalarni hal qilishning umumlashtirilgan usullarini o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, shuningdek modulli asosda qurilgan shaxsiy va kasbiy muhim fazilatlar quyi tizimidan iborat bo'lgan korporativ (kasbiy-ixtisoslashtirilgan) kompetensiyalar tizimini o'z ichiga oladi.

Ta'lim maqsadiga erishish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining raqobatbardoshligini shakllantirishning kasbiy-rivojlanish modelining mazmunli asoslari ratsional ravishda amalga oshirilishi kerak. Ta'lim mazmunini shakllantirish modulli yondashuv katta darajada bu talabga javob beradi. Modulli yondashuvning asosini – o'quv materialni tarkibining funksional tarmog'i ko'rinishidagi modulning maxsus loyihalanishi tashkil etadi. Har bir modul tugallangan didaktik birlik bo'lib, ma'lum bir kompetensiyani shakllantirish uchun mo'ljallangan. Modul maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kognitiv faoliyati jarayoni va natijalariga qo'yiladigan talablarni va konkretlashtirish imkonini beradi. Ta'kidlash joizki, kasbiy ta'limni modulli asosda tashkil etish, integrativ xarakterdagi yangi uslubiy ta'minotni talab qiladi.

Rahbarning kompetensiya modelining mazmunini ilmiy-pedagogik pozitsiyalar nuqtai nazaridan ham, ijtimoiy-iqtisodiy buyurtma nuqtai nazaridan ham taqdim etish zarurati va yaqqol dolzarblik bilan bog'liq holda biz rahbarlarning kompetensiyalari uchun kasbiy talablarni tahlil qildik.

Maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlarining amaliy tayyorgarliklariga bo'lgan talablarini tahlil qilish natijalari, shuningdek, bu talablarni umumlashtirish, eng talab qilinadigan kompetensiyalar to'g'risida xulosa chiqarish imkonini berdi, ular quyidagi muhim xususiyatlar bilan ifodalanadi: fikrlashning tizimlilik va moslashuvchanligi, muvofiqlashtirish, tashkil etish, munosabatlarni o'rnatish, odamlarni boshqarish va o'rganish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.X.Aminov, Umumiy o'rta ta'lim pedagog xodimlarini malakasini oshirish tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari: Ped. fan. nom... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2004. – 21 b.
2. Афанасев В.Г. Общество: системность, познание, управление / В.Г. Афанасев. – М.: Политиздат, 2004. – 258 с.
3. Бурков В.Н. Модели и механизмы теории активных систем в управлении качеством подготовки специалистов / В.Н. Бурков, Д.А. Новиков. – М.: Мир, 1998. – 157 с.
4. Куликова Н.В. Применение методов системного моделирования в педагогической деятельности / Н.В. Куликова. – М.: ТИАРА, 2010. – 112 с.
5. Лебедева М.Н. Особенности педагогического моделирования адаптивных технологий дополнительного профессионального образования / М.Н. Лебедева, Т.В. Сиганкова // Мир науки, культуры, образования. -2011. – Част 2. – С. 140-142.
6. Лукашевич В.К. Модели и метод моделирования в человеческой деятельности / В.К. Лукашевич. – Минск, 1983. – 120 с.
7. Михеев В.И. Моделирование и методы теории измерений в педагогике. / В.И. Михеев. – М.: Педагогика, 2007. – 200 с.
8. Моделирование образовательных сред в рамках развивающего образования / под ред. В.П. Лебедевой, В.И. Панова, В.А. Орлова. -Черноголовка: Академия, 2006. – 278 с.

9. Моделирование педагогических ситуаций: Проблемы повышения качества и эффективности общепедагогической подготовки учителя / Под ред. Ю.Н. Кулюткина, Г.С. Сухобской. – М.: Мир, 1981. – 120 с.
10. Нечаев И.Н. Моделирование и творчество / И.Н. Нечаев. – М.: Знание, 2007. – 276 с.
11. Никитин Е.М. Теоретические и организационно-педагогические основы развития федеральной системы дополнительного педагогического образования / Е.М. Никитин. – М., 1999. – 314 с.
12. Штофф В.А. Моделирование и философия / В.А. Штофф. -С-Пб.: Наука, 2006. – 301 с.
13. Яковлев Е.В. Управление качеством образования в высшей школе: теория и практика. Челябинск: Изд-во ЧГПУ. – 2000. – 148 с.